XALQ DEPUTATLARI G'OZG'ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-may VI-57-60-5-210-K/24 G‘ozg‘on shahar

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil qo`shimcha manbalari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida.

Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 14-maydagi 12-238/20-07-38/334-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 21 bob, 126-143-moddalariga muvofiq shahar mahalliy budjetining 2024-yil qo`shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 14-maydagi 12-238/20-07-38/334-sonli xatiga ko`ra shahar mahalliy budjetining 2024-yil qo`shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. shahar mahalliy budjetining 2024-yil qo`shimcha manbalari hisobidan jami **388 264 000 (uch yuz sakson sakkiz million ikki yuz oltmish to`rt ming) so`m** mablag` **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Budjet tashkilotlari va muassasalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasin.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boboyev), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Muhammadjonov)larga:

Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha (D.Egamova) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

BAZAROV AZIM
DANIKULOVICH

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 30-maydagi
VI-57-60-5-210-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil qo‘shimcha manbalari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar

T/R	Tashkilot va muassasa nomi	Maqsadi	Ajratiladigan mablag‘ (mln.so‘mda)		
			1-chorak DROBQ hisobidan	Yer uchustkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan	1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
1.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga	100000		
2.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Yoqilg‘i xarid qilish uchun	8000		
3.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Konselariya mahsulotlari xarid qilish uchun	8000		
4.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	G‘ozg‘on shahar politexnika texnikumiga ijara to‘lovi uchun	20000		
5.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Nuroniy jamg‘armasiga keksalar maslahati guruhi rahbarlarini rag‘batlantirish uchun	2720		
6..	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Ochilov Suponboyning aprel may iyun oylari uchun moddiy yordam puli	5100		
7.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Ijtimoiy bannerlar o‘rnatish xarajatlari uchun			34000
8.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Shahar hokimi 2023 yilda "Eng	42500		

		tashabbuskor sektor" nominatsiyasida g‘olib deb topilganligi munosabati bilan moddiy rag‘batlantirish uchun (ajratmasi bilan birga			
9.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Shahar hokimi o‘rinbosarlarini KPI ballari natijasiga ko‘ra rag‘batlantirish uchun (ajratmasi bilan birga)	7944		
10.	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Bekkeri chuqurini tashkil qilish uchun ZVOS hujjatlarini tayyorlash va ekologik ekspertizadan o‘tkazish uchun		8000	
11.	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Sement xarid qilish uchun		7000	
12.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	Shahardagi umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalarini qozonxonalarini joriy ta’mirlash uchun	70000		
13.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga	Siqilgan gaz xarid qilish uchun			5000
14.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	1-sonli maktabgacha ta’lim muassasiga quyosh panel o‘rnatish uchun	70000		
	JAMI		**334264**	**15000**	**39000**